

.....

ERKIN VOHIDOV VA IQBOL MIRZO SHE'RIYATIDA OBRAZLAR TIZIMI TAHLILI

Dilnoza Abdixomidova,

Alfraganus Universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Erkin Vohidov va Iqbol Mirzo she'riyatida milliy ruh, tarixiy xotira hamda zamonaviy poetik tafakkurning badiiy talqini qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Shoirilar ijodida milliy o'zlikni anglash, Vatanga muhabbat, tarixiy merosga sadoqat va inson ma'naviyati masalalarining poetik ifodasi yoritiladi. Shuningdek, ularning asarlaridagi obrazlar tizimi, ramziy timsollar va badiiy-estetik vositalar orqali milliy g'oya hamda zamon ruhi ifodalanishining o'ziga xos xususiyatlari ilmiy asosda ochib beriladi.

Kalit so'zlar: o'zbek she'riyati, milliy o'zlik, zamonaviy poetik tafakkur, Erkin Vohidov, Iqbol Mirzo, milliy ruh, tarixiy xotira, ma'naviy uyg'onish.

O'zbek she'riyati taraqqiyotida Erkin Vohidov va Iqbol Mirzo ijodi alohida ahamiyatga ega. XX asr oxiri XXI asr boshlarida milliy adabiy tafakkur taraqqiyotida yuz bergan yangilanish jarayonlari, avvalo, ana shu ikki ijodkorning poetik qarashlarida yorqin ifodasini topgan. Erkin Vohidov she'riyatida milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, ma'naviy uyg'onish g'oyalarining badiiy talqini chuqur falsafiy mushohada bilan uyg'unlashadi. Uning lirikasida o'zbek xalqining ruhiy dunyosi, orzu-umidlari, qadriyatlar tizimi milliy poetik tafakkurning davomiyligini ta'minlagan holda tasvir etiladi. Shoir badiiy obrazlar orqali nafaqat o'tgan davr ma'naviy olamini yoritadi, balki bugunning dolzarb masalalariga ham o'ziga xos badiiy-estetik yondashuvni namoyish qiladi.

Iqbol Mirzo ijodi esa mustaqillik davri ruhiyati va zamon nafasi bilan chambarchas bog'liq. Uning she'rlari istiqlolning ilk qadamlaridan boshlab, yangicha tafakkur, ozod fikr, inson erkinligi va milliy g'urur tuyg'ularining nazmda in'ikos topgan yorqin namunalardan biri sifatida qadrlanadi. Shoirning poetik dunyosida

bugungi jamiyatning ruhiy holati, insoniy qadriyatlarning yangilangan talqini, milliy ruh va zamonaviylik orasidagi uyg'unlik markaziy mavqega ega. Iqbol Mirzo lirikasidagi obrazlar tizimi yangi davr ruhini aks ettiruvchi bosh badiiy belgilar orqali shakllanadi.

Har ikki shoir ijodiga xos bo'lgan eng muhim jihatlardan biri – milliy o'zlikni yangicha badiiy talqin qilish, she'riyatning ichki energiyasi orqali o'quvchini fikrlashga, mushohada yuritishga undashdir. Erkin Vohidovning “Nido”si, “O'zbekim”i yoki “Ruhlar isyoni”dagi obrazlar tizimi millatning tarixiy o'zligi va ruhiy mustahkamligiga ishora qilsa, Iqbol Mirzoning “O'zbek”, “Bug'doyso'z”, “Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?” singari she'rlarida zamonaviy tafakkurning ohangi, yangi davrning ruhiy portreti aks etadi.

Shu sabab ham Erkin Vohidov va Iqbol Mirzo ijodida milliy ruh, zamon nafasi, poetik tafakkur evolyutsiyasi va obrazlar tizimining yangi bosqichi o'zaro tutashgan holda namoyon bo'ladi. Ularning she'riy merosi o'zbek adabiyoti taraqqiyotida nafaqat davr belgilarini, balki xalq ruhining davomiyligini ham ifodalovchi bebaho badiiy hodisa sifatida baholanadi.

Erkin Vohidovning badiiy tafakkurida tarixiy xotira millatning ma'naviy ildizi, shoirning she'riy dunyosida esa kuchli obrazlar tizimini shakllantiruvchi asosiy manbadir. Uning she'rlari orqali o'quvchi nafaqat bir davrning kayfiyatini, balki millatning butun tarixiy ruhini his etadi. Shoir xalq boshidan kechirgan sinovlarni, ajdodlardan meros bo'lgan ma'naviy qudratni timsollar orqali jonli tasvirlaydi.

Masalan, Vohidovning mashhur “O'zbekim” qasidasida tarixiy xotira va milliy iftixor uyg'unlashgan:

*“Tarixingdir ming asrlar
Ichra pinhon, o'zbekim,
Senga tengdosh Pomir-u
Oqsoch Tiyonshon, o'zbekim.
So'ylasin Afrosiyobu
So'ylasin O'rxun xati,
Ko'hna tarix shodasida
Bitta marjon, o'zbekim!” [1;23].*

Bu misralardagi har bir obraz shunchaki tabiat manzarasi emas, ular millatning sobitligi va mangu davomiyligini anglatuvchi ramziy poetik birlikdir. Shoirning tabiat vositasida mavhum qadriyatlarga jon bag'ishlash mahorati tarixiy xotirani badiiy idrokning markaziga olib chiqadi.

E.Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostoni esa milliy tarix va o'tmish iztirobi mavzusiga yondashuvning eng yorqin misollaridan biridir. Bu asarda o'tmish ruhlari orqali shoir millatning iztirobli taqdirini, erksizlik davrlarida bo'g'ilgan vijdon nidosini jonlantiradi:

*"... Bu – shoirning dilin ezgan
Istibdodning dardidir.
Yurakdan qon bo'lib sizgan
Iste'dodning dardidir..."[2;113].*

She'r mazmuni orqali shoir millat boshidan kechgan og'riqli tuyg'ularni umumxalq ruhiyati bilan uyg'unlashtiradi va tarixiy xotirani bugungi ongga ko'chiradi. Bu obrazlar o'tmishni romantik ideallashtirish emas, balki o'zligini anglash orqali ma'naviy tiklanishga chorlov sifatida namoyon bo'ladi.

Erkin Vohidov poetikasida ma'rifatparvarlik g'oyasi ham muhim o'rin tutadi. Shoirning "Vatan qadri" she'rida iroda, uyg'onish va tafakkur farzandi bo'lgan avlodga murojaat yangraydi:

*"Ey, vatandoshim, eshit
Bobur-u Furqat nolasin,
Besabab anduh tig'ida
Bag'rini tilmas kishi,
Bilma, farzandim, Vatan hajrini,
Lek qadrini bil –
Kim Vatan qadrini bilmas,
Angla, komilmas kishi" [3;50].*

Bu misralar shoir uchun ma'rifat millatning eng muhim boyligi ekanini ko'rsatadi. U yosh avlodni ilm, tafakkur va ongli hayot sari undaydi. Tafakkur timsoli shoir ijodida milliy ruhning muhim shakllantiruvchisidir: ma'rifatli inson ma'naviy qudratga ega millatning poydevori.

Erkin Vohidov ijodida milliy ruh – tabiat, tarix, ma’rifat hamda tafakkur timsollaridan tashkil topgan murakkab, ammo uyg‘un obrazlar tizimi orqali gavdalanadi. Shoirning poetik olami o‘zbek xalqining ruhiy shakllanish bosqichlarini, tarixiy xotiraning davomiyligini va ma’naviy tiklanish g‘oyasini o‘zida mujassamlashtiradi.

Erkin Vohidovning ma’naviy-badiiy izdoshi sifatida Iqbol Mirzo o‘zbek istiqlol davri she’riyatida yangi poetik nafas, zamonaviy dunyoqarash va individual lirizmni shakllantirgan eng yorqin ijodkorlardan biridir. Uning poetikasida zamon nafasi – yangilanish, erkinlik va insoniy o‘zlikni anglash kabi tushunchalar obraz darajasiga ko‘tarilib, she’riy tafakkurning markazida turadi.

Shoir lirikasida zamon ruhiyati avvalo shaxsning ichki kechinmalari, iztiroblari va orzulari bilan uyg‘unlashgan holda gavdalanadi. Iqbol Mirzo uchun Vatan – tashqi makon emas, balki inson qalbining eng nozik qatlamlarida yashovchi ruhiy manzildir. Shu bois uning she’rlarida Vatan obrazining markazida ko‘pincha vijdon, mas’uliyat va muhabbat tushunchalari turadi.

Masalan, shoirning “Yurt qo‘shig‘i” she’rida Vatan obrazining tasviri shaxsiy kechinmaning samimiy ohangi bilan qorishgan:

*“Bobomning bayti bor yaproqlaringda,
Momomning tafti bor chorbog‘laringda.
Onamni eslatar rayhoning, yurtim,
Dadamning hidi bor tuproqlaringda...
Qizg‘aldoqzoringda ko‘milib yotdim,
Billur shabnamlarda cho‘milib yotdim,
Dunyoni unutdim, o‘zni yo‘qotdim,
Men ham vatan bo‘ldim quchoqlaringda!” [4;130].*

Bu satrlar umumxalq qadriyatini shaxsiy holat darajasiga olib chiqadi. Shoir uchun Vatan shaxsning ichki dunyosi bilan qovushgan, ruhiy manzara sifatida talqin qilinadi. Bu jihat uni Erkin Vohidovning ko‘lamli hamda tarixiy mazmunga ega Vatan obrazidan farqlab turadi.

Iqbol Mirzo istiqlol yillaridagi psixologik o‘zgarishlarni, jamiyatning ma’naviy yangilanishini poetik vositalar orqali chuqur ifodalaydi. Uning she’rlari ko‘pincha

zamonning o'zgaruvchan ritmini, yangi davrga xos ruhiy holatni his qilishga undaydi. Shoir zamondagi o'zgarishlar bilan shaxsiy ruhiyatning bog'liqligini ochib beradi. Zamon nafasi Iqbol Mirzo ijodida faqat tashqi hodisa emas, balki insonning ruhiy yangilanish jarayoni bilan uyg'unlashgan ichki holatdir.

Iqbol Mirzo poetikasida falsafiy mushohada ham muhim o'rin tutadi. Shoir ko'pincha insoniy mavjudlikning mohiyati, vijdon azobi va hayotning abadiy savollari atrofida fikr yuritadi. Uning lirik qahramoni tashqi dunyodan ko'ra o'z qalbining teran tubida javob izlaydi. Shuning uchun Iqbol Mirzo she'riyatida obrazlar ko'pincha psixologik-falsafiy ma'no kasb etadi.

Xususan uning "Shoir" she'riga yuzlanamiz:

*"Lo'ttivoz jo'ralar, satang xonimlar,
Tashakkur! Hayotning fahmiga etdim!
Dalamni sog'inib yuragim yig'lar,
Men sizdan zerikdim. Qishloqqa ketdim!" [5;132].*

Shoir ushbu satrlarda shahar hayoti, ijtimoiy davralar, tashqi ko'rinishi jilvali bo'lgan, ammo ma'naviy bo'sh odamlar orasidagi ruhiy charchoqni teran ifodalaydi. Uning satrlari ortida ko'ngilning yolg'izlikka, sokinlikka, asl qadriyatlar sari intilishi mujassam. "Lo'ttivoz jo'ralar, satang xonimlar, Tashakkur!"

Bu satrlar bir qarashda muloyim minnatdorchilik bo'lib tuyulsa-da, aslida shoirning kinoya va istehzo bilan aytilgan so'zlaridir. "Lo'ttivoz jo'ralar"da yengiltabiat, mayda manfaatni ko'zlovchi, ma'naviy olami sayoz insonlar, "Satang xonimlar"da tashqi ko'rinishda chiroyli, ammo ichki dunyosi bo'sh kimsalar timsolidir.

Shoir ularga "tashakkur" deya, aslida hayotning haqiqatini aynan shu odamlar tufayli anglab yetganini ta'kidlaydi. Demak, ular shoirni charchatgan, ruhini ezgan, ammo shu jarayonda u o'zligini tanigan.

"Hayotning fahmiga yetdim!" Bu satr shoirning ruhiy uyg'onishi. U shahar hayotidagi yolg'on jilolar, sun'iy munosabatlar, manfaatparastliklar orasida asl baxtning mazmunini tushunadi. Hayotning mohiyati soddalik, halollik va samimiyatda ekanini anglaydi.

"Dalamni sog'inib yuragim yig'lar"da shoir uchun Tabiat ruhiy boshpana. Dala,

qishloq – bolalik, poklik, beg‘uborlik, o‘zlik timsoli. Shahar shovqinidan toliqib, ruhiy charchagan shoirning yuragi ona zamin bag‘rini, adog‘i yo‘q osmonni, tuproq hidini, samimiy insonlarni sog‘inadi. Bu satr ruhning yig‘isi, yo‘qotilgan poklikka intilish, asl qadriyatlarni qo‘msashdir.

“Men sizdan zerikdim. Qishloqqa ketdim!” Shoir nihoyat o‘z qarorini aytadi. Zerikish bu faqat jismoniy charchoq emas, ruhiy toliqish, ma’naviy nafasning bo‘g‘ilishi. U bu yaproqsiz, mazmunsiz munosabatlardan uzoqlashadi va o‘z manziliga qaytadi. Qishloqqa tabiat qo‘yniga, samimiyat o‘chog‘iga, o‘z ildizlariga, o‘ziga. Bu satr ruhning ozodligi, shoirning o‘zligini topish yo‘lidagi qat’iy qadamidir.

She’r hayotiy-falsafiy mazmunga ega bo‘lib, shoirning “shovqinli shahar” ramzi ortidagi soxtalikdan voz kechib, asl qadriyatlar manbai – qishloqqa qaytishini ifodalaydi. Unda kinoya, ruhiy iztirob, ma’naviy uyg‘onish, tabiatga ichki intilish, shoirona soddalik va ulug‘lik birlashtirilgan.

Erkin Vohidov ijodida falsafiy tafakkur asosan milliy o‘zlik, ma’naviy poklik va jamiyatning axloqiy tamoyillari bilan uyg‘un holda namoyon bo‘ladi. Shoir she’riyatida ruhiy kechinmalarning ildizi faqat subyektiv his-tuyg‘ularda emas, balki xalqning ko‘p asrlik ma’naviy tajribasiga tayanadigan tafakkur jarayonida o‘z ifodasini topadi. Shu bois uning she’rlaridagi falsafiylik biror mavhum fikriy tizim emas, balki millat ruhiyati bilan yo‘g‘rilgan ichki mushohada, o‘zlikni anglashga yo‘naltirilgan ma’rifiy jarayon sifatida ko‘zga tashlanadi.

Shoir insonning komillik sari yetilishi ma’naviy kamolot, ruhiy uyg‘onish avvalo Vatan ruhini his etish, tilda mujassam bo‘lgan xalq tafakkurini anglash, ajdod xotirasi bilan muloqotga kirishish orqali ro‘y berishini ta’kidlaydi.

Shoir uchun milliy ruh bu tarixiy faktlar yig‘indisi emas, balki mazmunli ruhiy iqlim, avlodlar xotirasida yashab kelayotgan ma’naviy kuchdir. Mazkur ruhiy iqlim shoirning falsafiy mushohadasiga mazmun bag‘ishlaydi. “Nido” she’rida xalqning o‘tmishdagi og‘riqlari, iztiroblari, o‘zligini yo‘qotib qo‘ymaslik uchun olib borgan kurashlari ramziy nido orqali ifodalanadi. Bu nido shaxsning emas, butun bir millatning ruhiy ovozidir.

Iqbol Mirzo bevosita istiqlool davri o‘zbek she’riyatiga yangi nafas, yangi ruhiy ohang, zamonaviy tafakkurning ichki mushohadasini olib kirgan shoirlardan biridir.

Uning she'riyatida ruhiyat insonning ichki suhbat, vijdon bilan muloqoti, hayot sirlarini "ichdan tinglash" san'ati sifatida talqin qilinadi. U Vatan, erkinlik, vaqt, muhabbat va yolg'izlik kabi mavzularni falsafiy ichki monologlar, ohangdor mushohadalar orqali poetiklashtiradi.

Shoir poeziyasining eng asosiy xususiyati shoirning falsafiy g'oyani tashqi voqelikda emas, balki inson qalbining sukunatlarida, ruhning eng nozik titroqlarida izlashidir. Uning lirik qahramoni ko'pincha o'zi bilan yolg'iz qoladi, o'ziga savol beradi, vijdoniga quloq soladi, kechinmalarining "ichki ovozi" tinglaydi.

Bu jarayon shoir poetikasida falsafiy monolog yoki ruhiy mushohada sifatida shakllanadi. Iqbol Mirzo she'rlarida insonning ichki olami voqealardan ham muhimroq, tashqi dunyodan ham chuqurroq falsafiy makondir. Shoir uchun haqiqiy haqiqat tashqarida emas, balki ichkarida, o'zlikning sokin qatlamlaridadir.

Uning misralarda insonning o'z-o'zini anglashdagi og'riqli jarayon, ichki kurashning gohida sukutga, gohida iztirobga aylanadigan ruhiy holati tasvirlanadi. Iqbol Mirzo uchun insonning ichki olami cheksiz savollar makoni. Bu savollar javob topishi shart bo'lmagan, ammo ruhni uyg'otadigan savollardir.

Shoirning "o'zini tinglash"ga asoslangan bu poetik yondashuvi uni Erkin Vohidovning ma'rifiy-falsafiy tafakkuridan farqlab turadi. Vohidov falsafani milliy tafakkur, tarixiy xotira bilan uyg'unlashtirsa, Iqbol Mirzo falsafani shaxsning ichki ruhiy tajribasi orqali ochadi. Shu bois uning she'riyatida fikrning emas, ruhi hayajonning falsafasi ustuvorlik qiladi.

Erkin Vohidov va Iqbol Mirzo bir zamindan, bir adabiy makondan yetishib chiqqan bo'lsalar-da, ruhiyatni talqin etishda ikki xil badiiy-falsafiy yo'nalishni ifodalaydigan shoirlardir. Ularning she'riy tafakkuridagi farqlar zamon ruhi, ijodiy psixologiya va poetik dunyoqarashning ikki turli parvozidir.

Erkin Vohidov ruhiyatni shaxs darajasida emas, balki **millat darajasida**, tarixiy xotira, ma'naviy uyg'onish va o'zlikning abadiy makoni sifatida talqin etadi. Uning she'riyatida falsafiy g'oya ko'pincha Vatan timsoli, ona tilining muqaddasligi, ajdodlar ruhi, milliy g'urur va tarixiy xotira bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi.

Shoir uchun falsafiy mushohada keng ufqlar, baland tog'lar, insoniyat va millat

taqdirining ulkan manzaralari orasida kechadigan yuksak fikriy jarayondir. Shu bois, ijodkor poetikasida **falsafa buyuk g'oya** sifatida talqin qilinadi.

Iqbol Mirzo esa butun kuchini insonning ichki olamiga yo'naltiradi. Uning she'riyatida ruhiyat – ichki iztirob, vijdonning sukutdagi ovozi, yolg'izlikning falsafasi, kechinmalar ichidagi o'zlikni toppish ko'rinishida namoyon bo'ladi.

U falsafani milliy miqyosdan emas, balki **shaxsiy tuyg'u geografiyasi**, yurakning eng nozik lahzalari orqali ko'radi. Iqbol Mirzoda falsafa tashqi balandlikda emas, balki ichki chuqurlikda yashaydi. Shu bois **Erkin Vohidovda falsafa yuksak g'oya, Iqbol Mirzoda falsafa sukunatdagi titroqdir.**

Har ikki shoirning tarjimai ruhiyatida farqlar bo'lsa-da, ularning ijodiy maqsadlari bir nuqtada tutashadi. **Odam va jamiyatni ma'naviy uyg'otish, qalbni poklikka chorlash.** E.Vohidov xalqning kechmishini, bu kechmish ortidagi tarixiy ruhni uyg'otsa, Iqbol Mirzo esa zamonaviy insonning ichki olamini uyg'otadi. Birida Vatan ko'lamli tarixiy konsepsiya bo'lsa, boshqasida Vatan qalbning eng nozik burchagiga aylangan ichki darddir.

Ularning ijodi o'zbek she'riyatiga ikki katta oqim olib kirdi. **Milliy falsafiy she'riyat** – Erkin Vohidov maktabi. **Ichki ruhiyat lirikasining falsafiy oqimi** – Iqbol Mirzo maktabi. Bu ikki yo'nalish bir-birini boyitdi, she'riyatimizga ichki teranlik va tashqi falsafiy ko'lamning yangi uyg'unligini olib kirdi.

E.Vohidov va I.Mirzo ijodi o'zbek adabiyotida milliy ruh, zamon nafasi, falsafiy mushohada, ichki kechinma, tarixiy xotira, shaxsiy o'zlik singari tushunchalarning poetik-estetik talqinini butunlay yangi badiiy bosqichga ko'tardi. Ular turli yo'nalishda ijod qilgan bo'lsalar-da, she'riyatimizni bitta yuksak g'oyaga **milliy o'zlikni anglash va ruhiy yetilishga** olib bordilar.

Ularning ijodi bir-birini to'ldiruvchi, ma'naviy taraqqiyotning ikki pog'onasini belgilovchi badiiy hodisadir. Bugungi adabiy tafakkur hamon ushbu ikki shoirning poetik merosi orqali boyib, zamonaviylik sari intilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Vohidov E. Tanlangan asarlar. –Toshkent: Sharq, 2018. –B. 23.
2. Vohidov E. Saylanma. –Toshkent: Sharq, 2001. –B. 113.

3. Vohidov E. Dilda ishq daryochadir. –Toshkent: Ziyo, 2019. –B. 50.
4. Vohidov E., Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. –Toshkent: Sharq, 2007. –B. 130.
5. Inomjonovna, I. D. (2025). ISAJON SULTON ROMANIDA BILGA XOQON SIYMOSINING ZAMONAVIY TALQINI. PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI, 17(02), 744-746.
6. TURDIYEVA, Y. O ‘ZBEK ADABIYOTIDA BADIY USLUB HODISASI.
7. Nusratov, B. B. O. G. L. (2023). ADABIYOTDA BADIY OBRAZ TUSHUNCHASI, OBRAZ YARATISHDA ILHOM VA TAFAKKURNING ROLI HAMDA ANVAR SUYUNNING “G ‘O ‘BDINTOG ‘HIKOYALARI” DA BADIY OBRAZLAR XUSUSIYATLARI. *Oriental Art and Culture*, 4(5), 166-169.
8. Ibragimova, D. I. TERMINOLOGY OF HISTORICAL PROSE AND THE GENRE ISSUE IN UZBEK LITERARY STUDIES.
9. Xujayev, M. I. (2021). ZAKI VALIDIYNING TURKISTON ILMIY SAFARI (1913-1914) GA OID TADQIQOTLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 776-788.
10. Gupta, D., Iroda, K., Faridovna, I. M., Hamidova, M., Muminjon, K., Saidjonovich, M. S., & Babayeva, Z. (2026). School-Based Support and Educational Transitions: Communication and Cognition in Genetic Syndromes. In *Interdisciplinary Perspectives on Genetic Syndromes and Human Development* (pp. 27-62). IGI Global Scientific Publishing.